

Farg'ona viloyatida bajarilgan qurilish ishlari

2026-yil yanvar-iyun oylari uchun


- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yil yanvar-iyun oylarida, Farg'ona viloyatida jami 12 068,5 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 122,7 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

■ Hajm, mlrd so'mda ■ O'sish sur'ati



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Farg'ona viloyati	12 068,5	122,7
shaharlar:		
Farg'ona shahri	2 204,9	119,6
Qo'qon shahri	862,9	161,9
Quvasoy shahri	491,9	119,5
Marg'ilon shahri	1 132,7	124,0

davomi

	Hajm, mlrdso'm	O'sish sur'ati, %
tumanlar:		
Oltiariq tumani	289,5	125,3
Qo'shtepa tumani	462,1	167,7
Bag'dod tumani	293,7	133,3
Buvayda tumani	345,2	120,2
Beshariq tumani	569,2	113,7
Quva tumani	265,7	131,6
Uchko'priq tumani	379,2	113,6
Rishton tumani	215,0	163,9
So'x tumani	152,6	112,7
Toshloq tumani	330,1	136,7
O'zbekiston tumani	437,8	114,2
Farg'ona tumani	377,8	128,0
Dang'ara tumani	339,4	144,6
Furqat tumani	99,4	123,6
Yozyovon tumani	278,6	114,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-iyun oylarida Farg'ona viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 70,7 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 121,1 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 22,2 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 38,0 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 7,1 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 149,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	1 173,2	716,9	62,1
<i>o'sish sur'ati, %</i>	159,2	97,3	129,5
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	4 374,3	1 950,7	795,8
<i>o'sish sur'ati, %</i>	119,7	53,4	151,5
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	2 984,5	11,0	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	112,5	0,4	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 952,2 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 149,7 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,9 % ga ko'payib, 16,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 59,0 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 121,1 % ni tashkil etgan holda 7 120,8 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 24,8 % ni yoki 2 995,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 112,8 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Shahar, tumanlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Farg'ona viloyati	1 952,2	7 120,8	2 995,5	149,7	121,1	112,8
shaharlar:						
Farg'ona shahri	260,7	1806,3	137,9	130,5	119,9	100,8
Qo'qon shahri	216,9	524,1	121,9	357,9	144,8	110,6
Quvasoy shahri	11,7	440,0	40,2	257,7	115,8	148,9
Marg'ilon shahri	340,0	695,3	97,4	80,9	172,0	109,0

tumanlar:						
Oltiariq tumani	68,3	142,4	78,8	626,1	95,5	110,8
Qo'shtepa tumani	257,3	70,8	134,0	210,0	99,8	163,3
Bag'dod tumani	24,9	200,3	68,5	96,0	148,5	115,0
Buvayda tumani	10,0	293,1	42,1	11,8	172,2	130,5
Beshariq tumani	9,2	498,5	61,5	139,4	114,8	103,2
Quva tumani	32,1	129,9	103,7	206,8	134,2	115,7
Uchko'prik tumani	93,8	257,6	27,8	1801,6	84,9	109,1
Rishton tumani	126,7	26,6	61,7	1671,7	38,8	112,1
So'x tumani	12,7	124,4	15,5	240,5	103,6	155,2
Toshloq tumani	38,3	198,4	93,4	296,3	144,1	102,9
O'zbekiston tumani	7,8	352,5	77,5	120,4	101,9	249,4
Farg'ona tumani	40,0	254,0	83,8	52,3	138,8	236,0
Dang'ara tumani	100,7	203,1	35,6	795,3	105,0	124,7
Furqat tumani	4,8	40,0	54,6	104,2	106,6	142,5
Yozyovon tumani	58,2	155,1	65,3	211,3	93,0	132,3

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari 2025-yilning mos davriga nisbatan Uchko'prik tumanida 18,0 marta, Rishton tumanida 16,7 marta Dang'ara tumanida 8,0 marta qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Buvayda tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 1,7 marta), Marg'ilon shahrida (2025-yilning mos davriga nisbatan 1,7 marta) va Bag'dod tumanida (1,5 marta) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;



d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining Farg'ona viloyat boshqarmasi statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
L.Yefimova
73 241-98-42
